

**QISHLOQ XO'JALIGIDA "YASHIL" IQTISODIYOTNING
INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINI QO'LLASH MASALALARI**

Aitmuratova Miyrigul Jalgasovna

Berdaq nomidagi Qoraqalpoq davlat universiteti tadqiqatchisi

e-mail: mirkaajtmuratova@gmail.com

Telefon: [+ 99 891 268 86 68](tel:+998912688668)

Annotatsiya: Maqolada bozor sharoitida korxonalar raqobatbardoshligini oshirishda innovatsiyalar va yashil iqtisodiyot tamoyillarining ahamiyati yoritilgan. Qishloq xo'jaligida organik dehqonchilikni rivojlantirish, resurslardan samarali foydalanish va ekologik barqarorlikka erishish dolzarb vazifa sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: Yashil iqtisodiyot, innovatsiyalar, qishloq xo'jaligi, organik dehqonchilik, qayta tiklanuvchi energiya, ekologik barqarorlik.

Bozor munosabatlari sharoitida korxonalar raqobatbardosh bo'lishlari uchun ishlab chiqarishni innovatsion asosda tashkil etishga intiladi. Raqobatbardosh bozor xo'jalik yurituvchi sub'ektlarni innovatsiyalarga rag'batlantirishning muhim ijobiy shartidir. Innovatsiyalarni qo'llash orqali korxonalar ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirishi mumkin, bu esa ularga katta bozor ulushini va qo'shimcha foya olishni ta'minlaydi. Shuningdek, innovatsion texnologiyalardan keng foydalanish, xo'jalik yurituvchi subektlarga raqobatdosh ustunliklarni saqlab qolishga va bozordagi ulushini oshirish imkoniyatini beradi. Yashil iqtisodiyotning eng muhim yo'nalishlaridan biri barqaror qishloq xo'jaligi bo'lib, zamonaviy sharoitda u tobora organik bo'lib bormoqda. Hozirda qishloq xo'jaligi jahon dunyosining zamonaviy talablariga to'liq javob bera olmayapti. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tizimi juda isrofgarchilikka va atrof-muhitga zararlarga olib keladi. Shu munosabat bilan zamonaviy qishloq xo'jaligida yangi yo'nalish— organik dehqonchilik va chorvachilikni rivojlantirish dolzarb bo'lib bormoqda.

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

Yashil iqtisodiyotning maqsadi inson faoliyatining ekvivalent sohalari sifatida uning moliyaviy, ekologik va ijtimoiy tarkibiy qismlarining o‘zaro ta’sirini optimallashtirishni talab qiladigan, hozirgi va kelajak avlodlar faravonligini yuqori sifatini ta’minlashga yordam beradigan turmush sharoitlarini aniqlash va amalga oshirishdan iborat. Yashil iqtisodiyot texnologiyalari haqidagi tushunchalarni rivojlantirishning hozirgi bosqichida ko‘plab olimlar qulay muhit yaratish, aholining turmush sharoiti va sog’lig’ini yaxshilash, atrof-muhitni muhofaza qilishga erishish uchun bir nechta muammolarni hal qilish kerak, deb hisoblaydilar, ularning asosiyлари [1]:

- xo‘jalik ishlarini deekologizatsiya qilishning salbiy oqibatlarini bartaraf etish, buzilgan tabiiy ekotizimlarni tiklash;
- tabiiy resurslardan oqilona foydalanishni ta’minlash;
- ekologik, moliyaviy va iqtisodiy elementlar asosida jamiyatning ekologik yo‘nalishda rivojlanishining barqarorligini ta’minlash;
- ishlab chiqarish monitoringini strategik ekologik baholashning samarali qoidalarini va hududlar relefini tubdan o‘zgartiruvchi loyihaviy yechimlarning atrof-muhitga ta’sirini ekspertizadan o’tkazuvchi normativ-huquqiy hujjatlar dasturlarini amalga oshirish;
- atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha xalqaro shartnomalar bo‘yicha majburiyatlarni bajarish.

2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi quyidagilar uni amalga oshirishning ustuvor yo‘nalishlari etib belgilangan [2]:

- iqtisodiyotning bazaviy tarmoqlari energiya samaradorligini oshirish;
- energiya resurslari iste’molini diversifikatsiyalash va qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan foydalanishni rivojlantirish;
- iqlim o‘zgarishi oqibatlariga moslashish va ularni yumshatish, tabiiy resurslardan foydalanish samaradorligini oshirish va tabiiy ekotizimlarni asrash;
- «yashil» iqtisodiyotni qo‘llab-quvvatlashning moliyaviy va nomoliyaviy mexanizmlarini ishlab chiqish;

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

- Strategiyada nazarda tutilgan tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha mas'ul vazirliklar va idoralar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- Idoralararo kengashga, shu jumladan uning ishchi organi faoliyatini tashkil etish orqali har tomonlama ko'maklashish;
- «yashil» iqtisodiyotni bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha hisobotlar yuritishning o'z vaqtida tashkil etilishini ta'minlash.

✓ Qishloq xo'jaligi davlat tomonidan tartibga solishning ustuvor tarmoqlaridan biri hisoblanadi, chunki bu sohani barqaror o'sishi muhim bo'lgan maqsadlarga erishishga, jumladan, qishloq hududlarini rivojlantirishga xizmat qiladi. Xorijiy tajriba agrosanoat majmui va qishloq xo'jaligiga ishlab chiqarish jarayonini tashkil etish va boshqarishning an'anaviy turlari o'rnini bosuvchi yashil texnologiyalarni joriy etishni ko'rsatmoqda. Keng tarqalgan organik dehqonchilik usullari yashil iqtisodiyotga o'tish yo'lidagi muhim qadamdir. Qishloq xo'jaligida innovatsion yashil iqtisodiyot texnologiyalarini joriy etishning asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- ✓ tabiiy resurslardan yuqori samarali foydalanish;
- ✓ tabiiy kapitalni oshirish va ifloslanishni kamaytirish;
- ✓ biologik xilma-xillikni yo'qotishning oldini olish;
- ✓ daromad va bandlikning o'sishi;
- ✓ iqtisodiy o'sishning standart modelidan yashil iqtisodiyotga o'tish;
- ✓ yashil texnologiyalardan foydalanishning iqtisodiy samaradorligi va yashil ishlab chiqarishni joriy etish, sanoatni ekologizatsiyalashtirish va hududlarda yashil iqtisodiyotga bosqichma-bosqich o'tishni strategik rejalashtirishda yashil iqtisodiyot tamoyillarini qo'llash zarurati tahlilini o'tkazish.

Umuman olganda, qishloq xo'jaligida yashil iqtisodiyotga o'tishning ustuvor yo'nalishlariga quyidagilar kiradi: ishlab chiqarish quvvatlarini muqobil energiyaga bosqichma-bosqich o'tkazish; tarmoqlararo va munitsipallararo kooperatsiya asosida qishloq xo'jaligida tarmoq va klaster o'zaro hamkorlik shakllarini rivojlantirish, bu esa qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan tarmoq va hududlarni uyg'un rivojlantirishga xizmat qiladi; ixtisoslashgan sanoat

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

korxonalarining haqiqiy ishlab chiqarish ehtiyojlariga muvofiq yashil texnologiyalarni joriy etish.

Qishloq xo‘jaligi korxonalarini holatini baholash chora-tadbirlar tizimini, birinchi navbatda, moliyaviy sog'lomlashtirish va ishlab chiqarishni bosqichma-bosqich tiklashni amalga oshirmsandan turib, yashil iqtisodiyotga o‘tishda innovatsion faoliyatni faollashtirish qiyinlashib borayotganini ko‘rsatoqda. Innovatsion jarayonlarni rivojlantirish uchun davlat innovatsion faoliyatini rag’batlantirishning samarali mexanizmini joriy qilishda bir qator vazifalarini hal etish zarur hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Оборин М.С. Инновационные технологии "зеленой" экономики в сельском хозяйстве. <https://cyberleninka.ru/article/n/innovatsionnye-tehnologii-zelenoy-ekonomiki-v-selskom-hozyaystve>.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son 2019-2030 yillar davrida O‘zbekiston Respublikasining «yashil» iqtisodiyotga o‘tish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi qarori.